



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 496 sahifa,
18-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori	14
Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni	23
Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari	28
B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	47
A. Safarov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
Xolmatov Doston Dilshod o'g'li	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi	60
Xolmurodova Sarvinoz	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
G'afforova Dildora Ergashevna	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
Yusupova Umida Zayniddin qizi	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil	78
Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi	81
Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
Xurramova Sojida Abdunazar qizi	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari.....	91
Risvayeva Charos Zaydilla qizi	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi	94
Z. N. Urunova, M. Jaborova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash	97
Sattorova Shirinoy San'atovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
Buvrayev Akram Rustam o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar	104
Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati	107
Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlari	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish	136
<i>Bozorov Otabek Yo'lchi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля камерaproctor	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'klanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки)	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	
Oila tushunchasi uning ijtimoiy ahamiyati haqida sharq mutafakkirlarining qarashlari.....	321
<i>Shokirov Xolida O'rozboq qizi, Abdurashidova Sarvinoz Akrom qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining uyg'unligi	325
<i>Bekmirzayev Shavkat Olim o'g'li</i>	
Global ta'lim tendensiyalari asosida maktabgacha ta'lim mazmunini transformatsiyalash mexanizmlari	329
<i>Haqqiyeva Fotima Olimjonovna</i>	
O'zbekiston mustaqillik taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'lim paradigmalarining evolyutsion tahlili	333
<i>Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li, Sayfullayeva Parvina</i>	
Malaka oshirish tizimida o'qituvchi-pedagoglarning hamkorlikka asoslangan yondashuvining ilmiy ahamiyati.....	338
<i>Sobirova Lobar Raximovna</i>	
Qutqaruvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishda ilmiy-metodologik yondashuvning ahamiyati	343
<i>Abdunosir Abdurasulovich G'afurov</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishi kamchiliklarini bartaraf etishda pedagogik yondashuv	347
<i>To'rayeva Dilbar, Zulayxo Nazarova</i>	
Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablarining mazmun-mohiyati	350
<i>Samadova Mahliyo, Zulayxo Nazarova</i>	
Harakatli o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish	354
<i>Yaxyayeva Sojida Abduraximovna, Mustafayeva Dilfuza Jumanovna</i>	
Multimodal yondashuv asosida talabalarning ekologik kompetensiyalarini takomillashtirish tizimining ahamiyati.....	358
<i>O'sarova Muborak Fahriddinovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida o'quv faoliyati samaradorligini monitoring qilish tizimini loyihalashning tashkiliy-pedagogik asoslari.....	362
<i>Kurbanov Dilmurat Marupjanovich</i>	
Shaxs kamolotida ijtimoiy moslashuv va ma'naviy tarbiyaning ahamiyati	367
<i>Nazira Axmadjonovna Dadaboyeva</i>	
Individual yondashuv asosida maktab o'quvchilarida raqamli o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish va raqamli texnologiyalar integratsiyasi	371
<i>Xaydarova Zilola Normurodovna, Hasanov Samir Xayrulloevich</i>	

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida differensial yondashuvning psixologik-pedagogik asoslari	375
<i>Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna</i>	
Onlayn muloqot strategiyalarining talaba kommunikativ kompetensiyasiga ta'siri	379
<i>Davlatova Ra'no Haydarovna, Islomova Shahlo Madat qizi</i>	
Ajrim yoqasidagi oilalarni ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish	385
<i>Tojibayeva Nargiza Keldibekovna</i>	
Raqamli muhitda yolg'izlik fenomenining nazariy tahlili.....	389
<i>Turg'unboeva Nodira Baxtiyor qizi</i>	
Психологические последствия буллинга для личности подростка и его социализации.....	392
<i>Амирова Луиза Маратовна</i>	
Ta'lim jarayonida onlayn so'rov va refleksiya texnologiyalarining didaktik samaradorligi: nazariy va empirik tahlil	395
<i>Majidov Anvar Tuychiyevich</i>	
Влияние семейных кризисов на развитие личности.....	399
<i>Туракулова И. Х.</i>	
Комплексный подход к профилактике нарушений осанки у детей дошкольного возраста.....	403
<i>Хасанова Галина Мамутовна</i>	
Talabalarda milliy qadriyatlar asosida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik-pedagogik texnologiyasi mazmuni.....	407
<i>Xudoyqulova Zarifa Ummatqulovna</i>	
Intellectual axborot tizimlari asosida ta'lim boshqaruvini avtomatlashtirish	413
<i>Ernazarov Zohid Nazarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	418
<i>Shaxnoza Allaberganova</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishning nazariy-metodologik va falsafiy asoslari	421
<i>Aknur Junisova</i>	
Pedagogical Strategies for Forming Social Responsibility and Active Citizenship Competence in Primary Education.....	425
<i>Aknur Zhunisova</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy xavf turlarini tasniflash va ekotizimli yondashuv asosida diagnostika qilishning pedagogik imkoniyatlari	430
<i>Manzura Qosmuratova</i>	
Raqamli pedagogika va interaktiv innovatsiyalar asosida xorijiy til o'qitish: yangi ufqlar va ta'lim samaradorligi	437
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Principles of Multilevel Assessment in Speaking.....	441
<i>Billayeva Shohida Dilshod qizi</i>	
Ingliz tili mutaxassslarining uslubiy kompetensiyasi va kommunikativ-metodik kompetensiyasi masalalari muammolari	444
<i>Azimova Maxfuza Hasanovna</i>	
Sun'iy intellektning ta'limda qo'llanilishi va talabalar qadriyatlar tizimi rivojlanishiga ijtimoiy-psixologik ta'siri	448
<i>Boboyev Xamdani Ataxanovich</i>	
Muloqot: shifokor va bemor muloqotining psixologik xususiyatlari	451
<i>Isroilova O'g'lioy Isroil qizi, Davronov Abdurahob Turg'unboev o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni web lohiyalar va axborotlashgan ta'limdan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy xususiyatlari	454
<i>Jo'rayev Qo'ldoshjon Ismatullo o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari	460
<i>Mirzaolimova Munira</i>	



Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning nazariy asoslari.....	465
Musayev Ashurali Shamshidinovich	
Ona tili ta'limida kreativ salohiyatni rivojlantirishning faoliyatli xususiyatlari.....	469
Qurbonova Oysha Beknazarovna, Qo'yliyeva Gulshoda Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda zamonaviy jahon ta'lim texnologiyalarining ahamiyati.....	472
Sagdatdinova Maftuna Nuratdin qizi	
Ikkinchi jahon urushi davrida front ortida o'zbek xotin-qizlarining qahramonliklari (1941–1945).....	475
Saidova Iroda Xursandovna	
Maktab menejmenti: ma'muriy boshqaruvdan inson kapitalini rivojlantirishga o'tish.....	479
Tursunpo'latov Farxodjon Xoshimjon o'g'li	
Jismoniy tarbiya tizimida jismoniy tayyorgarlik sinovlari orqali salomatlikni baholashning kompleks yondashuvi	485
Usmonov Mansur Qurbonmurotovich	
Kredit modul tizimida bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining fasilitatorlik kompetensiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	489
Xamidova Sabrina Abduvahob qizi	



IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA FRONT ORTIDA O'ZBEK XOTIN-QIZLARINING QAHRAMONLIKLARI (1941- 1945)

Saidova Iroda Xursandovna

Fan va texnologiyalar universiteti, "Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0009-5873-9477>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi (1941-1945) yillarida O'zbekiston SSRda front ortida xotin-qizlarning mehnat faoliyati tarixiy manbalar va statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Sanoat korxonalarida, qishloq xo'jaligida, qurilish sohasida hamda ijtimoiy-insonparvarlik yo'nalishida ko'rsatgan fidokorona xizmatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada urush xotin-qizlarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi o'rnini tubdan o'zgartirgani hamda ularning g'alabaga qo'shgan his-sasi beqiyos ekanligi ilmiy asosda isbotlanadi.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, O'zbekiston SSR, xotin-qizlar mehnati, front orti, sanoat, qishloq xo'jaligi, evakuat-siya, ijtimoiy safarbarlik.

Abstract: This article analyzes the labor activities of women on the home front in the Uzbek SSR during World War II (1941-1945) based on historical sources and statistical data. It examines their dedicated contributions in industrial enterprises, agriculture, construction, and social-humanitarian activities. The article scientifically substantiates that the war fundamentally transformed women's role in economic and social life and that their contribution to victory was invaluable.

Key words: World War II, Uzbek SSR, women's labor, home front, industry, agriculture, evacuation, social mobilization.

Аннотация: В данной статье на основе исторических источников и статистических данных анализируется трудовая деятельность женщин в тылу Узбекской ССР в годы Второй мировой войны (1941-1945). Рассматривается самоотверженный труд женщин на промышленных предприятиях, в сельском хозяйстве, строительной отрасли, а также их социально-гуманитарная деятельность. В статье научно обосновывается, что война коренным образом изменила роль женщин в экономической и общественной жизни, а их вклад в достижение победы является неопределимым.

Ключевые слова: Вторая мировая война, Узбекская ССР, женский труд, тыл, промышленность, сельское хозяйство, эвакуация, социальная мобилизация.

KIRISH

Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng yirik va eng dahshatli qurolli to'qnashuv bo'lib, u butun O'zbekiston xalqining hayotida chuqur iz qoldirdi.

1941-yil 22-iyunda fashistik Germaniya Sovet Ittifoqiga hujum boshlagan kundan e'tiboran respublikaning barcha mehnatkash aholisi – erkaklar bo'lsin, ayollar bo'lsin – "hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun" shiori ostida birlashdi. Urush boshlanishi bilan mehnatga layoqatli erkaklar frontga safarbar etildi.

O'zbekistondan jami 1 million 433 ming 230 kishi urushga jo'natildi – bu urushga yaroqli aholining 50-60 foizini tashkil etardi. Erkaklarning frontga ketishi bilan oilani, xo'jaliklarni, zavod va fabrikalarni bosh-qarish mas'uliyati xotin-qizlar zimmasiga tushdi. Ular nafaqat turmush o'rtog'i, ona va uy bekasi sifatida, balki ishchi, traktorchi, zavod ishchisi, quruvchi va jamoat arbobi sifatida ham faoliyat ko'rsatishga majbur bo'ldilar. Ushbu maqolaning maqsadi – urush davrida O'zbekiston xotin-qizlarining front ortidagi mehnat jasoratlari va ularning g'alabaga qo'shgan hissasini tarixiy manbalar asosida yoritishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI**Urush davridagi ijtimoiy o'zgarishlar va ayollarning iqtisodiy roli**

Urush boshlangach, O'zbekistonga SSSRning g'arbiy hududlaridan yuzlab korxonalar ko'chirib keltirildi: 100 ga yaqin sanoat korxonasi, jumladan, 48 ta mashinasozlik, metallga ishlov berish va kimyo zavodi O'zbekistonga ko'chirildi hamda qisqa muddatda ishga tushirildi. Erkaklarning urushga jalb etilishi natijasida ushbu korxonalarda ishchi kuchi taqchilligi yuzaga keldi. Bu bo'shliqni to'ldirish vazifasi asosan xotin-qizlar va o'smirlar zimmasiga yuklatildi.

Statistik ma'lumotlar buning yorqin tasdig'idir: urushdan oldin, ya'ni 1940-yilda respublika sanoatida band bo'lgan ayollar umumiy ishchilarning 43 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1941-yilga kelib bu ko'rsatkich 50 foizga ko'tarildi, 1942-1943-yillarda esa 63,5 foizga yetdi. Ular traktorchiilik, metallga ishlov berish, payvandlash kabi og'ir kasblarni o'rganib, erkaklar bilan teng faoliyat ko'rsatdilar.

Urushning dastlabki paytlaridayoq 20 mingga yaqin toshkentlik xotin-qiz sanoat korxonalarida va qurilishlarda, 1700 ga yaqin respublika xotin-qizlari esa ko'mir koni shaxtalarida ishlashga yo'l oldi. Urganch shahrida 1942-yilda uyushtirilgan xotin-qizlar mitingida ko'plab uy bekalari ishtirok etib, frontga ketgan erkaklar o'rnini bosish uchun sanoat korxonalarida ishlashga chaqirib e'lon qildilar. Natijada 1943-yilga kelib Urganch korxonalarida 1300 nafar xotin-qiz faoliyat ko'rsatdi. Buxoro viloyatida ham shunga o'xshash manzara kuzatildi: 200 dan ortiq buxorolik xotin-qiz sanoat korxonalarida va artellarga rahbarlik qildi. Bu holat ayollarning nafaqat oddiy ishchi sifatida, balki ishlab chiqarish jarayonini boshqaruvchi rahbar sifatida ham maydonga chiqqanligini ko'rsatadi.

Qurilish sohasidagi mehnat

Urush yillarida O'zbekistonda ko'plab yirik qurilishlar amalga oshirildi. Xotin-qizlar Salor va Farhod GESlarini, respublikaning turli hududlarida qurilgan 200 ta korxonani barpo etishda erkaklar bilan teng mehnat qildilar. Qurilish ishlari o'ta og'ir sharoitlarda – tabiat qiyinchiliklari, moddiy yetishmovchilik, 12 soatlik ish kuni, ochlik, sovuq hamda kiyim-kechak va oyoq kiyimlarning tanqisligi sharoitida olib borildi. Tarixchi olim R. Nurulning ma'lumotlariga ko'ra, frontga aslaha yetkazib bergan korxonalarining aksariyat ishchi-xizmatchilari ham xotin-qizlar va 14-16 yoshli o'smirlardan iborat bo'lgan.

Paxtachilik va don yetishtirishdagi fidokorlik

O'zbekiston urush yillarida frontni qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashda yetakchi o'rin tutdi. Ammo erkaklar frontga ketgach, dalada mehnat qiluvchilarning katta qismi ayollarga to'g'ri keldi. 1944-yilga kelib Sovet Ittifoqi bo'yicha barcha mehnatga layoqatli kolxozchilarning 80 foizini ayollar tashkil etdi. O'zbekistonda 1944-yil 1-yanvar holatiga ko'ra ayollar soni 671,3 ming kishiga yetib, RSFSRdan keyingi ikkinchi o'rinni egalladi. Qishloq xo'jaligida 1942-yil oxiriga kelib ishchilarning 65 foizini xotin-qizlar tashkil etganligi statistik jihatdan qayd etilgan.

Iqtisodiy aloqalarning uzilishi va oziq-ovqat importining to'xtashi sharoitida xalq "o'zini o'zi ta'minlash" vazifasini zimmasiga oldi. Vaziyatning og'irligiga qaramay, paxtachilik respublikada qishloq xo'jaligining yetakchi yo'nalishi sifatida saqlab qolindi.

Urushning to'rt yili mobaynida O'zbekiston davlatga 4 million 806 ming tonna paxta, 1 million 66 ming tonna g'alla, 195 ming tonna sholi, 108 ming tonna kartoshka, 374 ming tonna sabzavot va ho'l meva, 54 ming tonna pilla, 57,4 ming tonna uzum va 1 million 593 ming tonna go'sht topshirdi. Bu ulkan mehnat samarasini yuzaga keltirgan asosiy kuch esa xotin-qizlar edi. Dala ishlari deyarli qo'l kuchi bilan bajarildi, chunki qishloq xo'jaligi texnikasining aksariyati front ehtiyoji uchun yo'naltirildi. Kundalik mehnat normasining 7-8 soat qilib belgilanishiga qaramay, ko'p hollarda ish rejaları bajarilmaguncha dam olish bo'lmas edi. Shahar va qishloq o'quvchilari ham paxta dalalariga olib chiqildi: 1941-1942-o'quv yilida maktab o'quvchilari soni 1 194 084 kishini tashkil etib, davlat ulardan tayyor ishchi kuchi sifatida foydalandi.

Ijtimoiy va insonparvarlik faoliyati: ko'chirib keltirilganlarga g'amxo'rlik

O'zbekistonlik ayollarning urush davridagi eng yorqin insonparvarlik xizmatlaridan biri urush hududlaridan evakuatsiya qilingan aholini, xususan, yetim qolgan bolalarni qabul qilish bo'ldi. O'zbekistonga 1,5 milliondan ortiq odam, shundan 250 mingdan ziyod bola ko'chirib keltirildi. O'zbek oilalari o'z uylarini va bor-budlarini evakuatsiya qilinganlar bilan baham ko'rdilar.

Muattar Ubaydullayevning ma'lumotlariga ko'ra, Shahrisabzdagi "Hujum" arteli ishchisi M. Tursunova o'zining ikki farzandi borligiga qaramay, ko'chirib keltirilgan bolalarni tarbiyasiga olishga tayyorligini e'lon qilib, boshqa ayollarni ham shunday ezgu ishga da'vat qildi. Buxorolik 50 yoshli Bahrixon Ashurxo'jayeva esa evakuatsiya qilingan turli millatlarga mansub 8 nafar bolani o'z tarbiyasiga oldi. Bu holat o'zbek xotin-qizlarining



nafaqat mehnatkash, balki mehr-muruvvatli inson ekanliklarini yaqqol namoyon etdi. Mudofaa jamg'armasiga hissa. Urush yillarida O'zbekiston aholisi mudofaa jamg'armasiga jami 649 million 900 ming so'm naqd pul o'tkazdi. Bu mablag'larni yig'ishda xotin-qizlarning roli beqiyos edi – ular o'zlari og'ir moddiy sharoitda yashayotgan, non tanqis bo'lgan vaziyatda ham frontga yordam berish uchun barcha imkoniyatlarini safarbar etdilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jangovar harakatlarda qatnashgan ayollar front ortidagi mehnat bilan bir qatorda, O'zbekistonlik ayollarning bir qismi bevosita jangovar harakatlarda ham qatnashdilar. O'zbekistondan 4555 nafar ayol urushda ishtirok etdi – ular aloqachi, uchuvchi, mergan (snayper), zenitchi, tibbiy xodim va razvedkachi sifatida xizmat qildilar. Zenitchi Azizaxon Qalandarova 1943-yil 8-iyunda Orel yaqinidagi jangda dushman samolyotini urib tushirgan birinchi ayol bo'lib, "Krasnaya Zvezda" ordeni bilan taqdirlandi hamda keyinchalik ofitser unvoniga sazovor bo'ldi. Snayper Zebo G'aniyeva Moskva himoyasida 28 ta fashistni yer tishlatib, Qizil Bayroq ordeni va "Snayper" belgisi bilan mukofotlandi. Radio razvedkachi Nargiza Ibrohimova esa jangda yaralangan qo'mondoni va muhim hujjatlarni dushman o'ti ostida qolib ketgan yonayotgan tankdan qutqarib, o'zini xavf ostiga qo'ydi. Ayollar mehnatining og'ir sharoitlari. Bularning barchasi favqulodda og'ir hayotiy sharoitlarda kechdi. Urush yillarida ocharchilik va kasalliklar avjiga mindi, shahar va qishloq aholisi yetarli oziq-ovqat, kiyim-kechak hamda tibbiy yordamdan mahrum bo'ldi. Kartochkali ta'minot tizimi joriy qilinib, non, go'sht, yog' kabi mahsulotlar belgilangan norma asosida berilar edi. Qishloq aholisining aksariyati esa markazlashgan davlat ta'minotidan butunlay chetda qoldi.

1941-yildan e'tiboran ta'tillar bekor qilinib, qo'shimcha ish vaqtiga ruxsat berildi. Kolxozchi bir yil mobaynida belgilangan majburiy ishni bajarmasa, shaxsiy tomorqasidan foydalanish huquqidan mahrum qilindi – bu esa asosiy mehnat kuchi bo'lgan xotin-qizlarga nisbatan ham tatbiq etildi. Biroq barcha qiyinchiliklarga qaramay, ular matonat va iroda bilan o'z ishlarini davom ettirdilar.

Xullas, Ikkinchi jahon urushi O'zbekistonning demografik holatini tubdan o'zgartirib, aholining o'sish darajasiga hamda uning tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Mehnatga layoqatli erkaklarning frontga jalb etilishi ommaviy tarzda ayollar va maktab yoshidagi o'smirlarning sanoat korxonalarini hamda dala ishlariga jalb qilinishiga, uzaytirilgan ish vaqtida ishlashiga sabab bo'ldi. Qishloq aholisi nafaqat o'z ehtiyoji uchun ishlashga, balki armiyani oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga ham majbur bo'ldi.

Bevosita janglarda 27 mln. kishining yostig'i qurigan, boshqa talofatlar ham qo'shilganda esa 30 mln. kishi nobud bo'lgan Ikkinchi jahon urushi o'zbek xalqiga ham beqiyos katta talofat yetkazdi. Minglab ayollar beva, bolalar esa yetim bo'lib qoldi. Ota-onalar farzandlari dog'ida qayg'u-alam bilan bu dunyodan ko'z yumdilar. Urush yillaridagi chek-chegarasiz xarajatlar xalqni shu darajada qashshoqlashtirdiki, uni ta'riflashga qalam o'jizlik qiladi. Qanchadan-qancha odamlar ochlik va kasalliklardan vafot etdi. Urush o'zbek xalqining bor-yo'g'idan tamomila ayirdi, ko'rpa-to'shaklari va boshqa ro'zg'or anjomlaridan mosuvo qildi, uy-joylari xarobaga aylandi, xalq och va yupun ahvolda qoldi. Ocharchilik va kasalliklar qishloqlarda avjiga chiqib, ko'plab odamlarning yostig'ini quritdi. Bolalar orasida ham o'lim holatlari ko'p uchrardi. Biroq sho'ro davlatining e'tiborsizligi tufayli urush davrida orttirilgan qiyinchilik va azob-uqubatlar to'liq bartaraf etilmadi. Ayniqsa, urush nogironlarining qadr-qimmatini o'rniga qo'yilmay, ular o'z holiga tashlab qo'yildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, urush yillarida mashaqqatli mehnat va azob-uqubatlardan boshqa narsani ko'rmagan odamlarning ko'pchiligi qayg'u-alam girdobida jon berdilar. Shunga o'xshash urush qatnashchilarining talay qismi ham yorug' kunlarni ko'rmadi. Biroq shuni unutmaslik kerakki, ota-bobolarimiz misli ko'rilgan azob-uqubatlar va talofatlar evaziga butun insoniyat boshiga tushgan ofatni bartaraf etishga ulkan hissa qo'shib, jahon tarixida o'chmas iz qoldirdilar.

Ikkinchi jahon urushi yillari (1941-1945) O'zbekiston xotin-qizlari uchun nafaqat ulkan sinov, balki tarixiy jihatdan yangi ijtimoiy bosqich ham bo'ldi. Ular nafaqat dehqonchilik, balki sanoat, transport, ta'lim hamda sog'liqni saqlash sohalarida ham asosiy ishchi kuchiga aylandilar (Inlibrary.uz, 2025). Urushdan oldin sanoat ishchilari orasida 43 foizni tashkil etgan xotin-qizlar ulushi urush yillarida 63,5 foizga ko'tarildi, qishloq xo'jaligida esa 65 foizga yetdi.

Front ortidagi ushbu ulkan mehnat O'zbekistonni frontning ishonchli ta'minot bazasiga aylantirdi. Respublikadan frontga 2 mingdan ziyod samolyot, ko'plab qurol-yarog'lar, ulkan miqdorda oziq-ovqat va kiyim-kechak yetkazib berildi (Cyberleninka.ru). 4 million tonnadan ziyod paxta, millionlab tonna don va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari frontga hamda davlatga topshirildi. Bu g'alabaning moddiy zaminini yaratishda xotin-qizlarning hissasi beqiyosdir. O'zbek xotin-qizlari bu mashaqqatli yillarda ona, mehnat qahramoni va insonparvarlik timsoli sifatida o'zlari ham qiyinchilikda yashagan holda ko'chirib keltirilgan minglab chet ellik bolalarga

boshpana berdilar, mehnat frontida tinmay ishladilar hamda fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga munosib hissa qo'shdilar. Ularning jasorati tarix sahifalarida munosib o'rin egallashi va kelajak avlodlarga namuna bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PQ-4495-son Farmoni "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 75 yilligini munosib nishonlash to'g'risida". – lex.uz.
2. Axunova M.A. (tahrir hay'ati rahbari). O'zbek SSR Ikkinchi jahon urushi yillarida (1941-1945). 3 jildlik. – T.: Fan, 1981-1984.
3. Nurulin R. O'zbekiston sanoat tarixi: urush yillari sahifalari. – T.: O'zbekiston nashriyoti, 1995.
4. Sultonov X. O'zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida. – T.: O'zbekiston nashriyoti, 2022.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
6. Ubaydullayev M. Urush yillarida O'zbekiston xalqining insonparvarlik harakati. – T.: Fan, 1987.
7. Xotira. Xorazm shahri. 1-kitob. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.
8. Xotira. Farg'ona shahri. 2-kitob. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1994.
9. Xotira. Andijon. 1-kitob. – T.: Mehnat, 1994.
10. Adham Rahmat. Shinelli qizlar. – T., 1970.
11. Jo'rayev T. O'zbekiston jangchilari Ulug' Vatan urushi frontlarida. – T.: Fan, 1975.
12. Sirojev O. Fashizm ustidan erishilgan g'alabada buxoroliklarning roli. – T.: O'zbekiston, 1996.
13. Vatan sharafi uchun. 1944-yil 16-yanvar. № 3(193). Tuzuvchi: Shamsutdinov R. To'plam: Ikkinchi jahon urushi fronti va gazetolari. II jild. – T.: Akadernashr, 2017. – B. 26.
14. Qizil Armiya. 1944-yil 7-mart. № 20(125). Tuzuvchi: Shamsutdinov R. To'plam: Ikkinchi jahon urushi fronti va gazetolari. II jild. – T.: Akadernashr, 2017. – B. 441.
15. Saidova I.Kh. Socio-economic Aspects of the Daily Lifestyle of Women of Tashkent Oasis during World War II // Science and Innovation International Scientific Journal. – Volume 3, Issue 12, December 2024. – ISSN: 2181-3337.
16. Saidova I.X. O'zbek ayollarining Ikkinchi jahon urushi yillarida g'alabani ta'minlashdagi faoliyati // Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali. – Jild 5, Nashr 11, 2025. – ISSN: 2181-2594.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.